

TO QUYOSH  
SOCHGAYKI NUR...

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi

# O'ZBEGIM


2022-yil 26-oktabr №7

**21-oktabr — O`zbek tiliga davlat tili  
maqomi berilgan kun**

Gullasin Vatanim, yashnasin elim,  
Baxt-u saodatdan yaygrasin dilim,  
Armoni yo`q inson bo`lay dunyoda,  
Dilim qurvonchini so`ylasin tilim.

Ona tilim obro`sin ko`taray ko`kka,  
Men ham intilaman doim yuksakka,  
Vatanga muhabbat tilga sadoqat,  
Har kimni yetkazar ezgu tilakka.

O`zbek tili — mening ona tilimdir,  
Har bir kuy-g`azali g`uncha — gulimdir,  
O`z ona tilimni chin dildan sevmog`  
Bilaman, men tutgan to`g`ri yo`limdir.



# Atlas Bayrami

MAR

O'ZBEK

“Atlas bayrami” festivali maqsadi o`zida  
va turizmni yanada rivojlantirish va  
ommalashtirish, hunarmandlikni qo`llab  
hamkorlikni kengaytirishga xizmat qiladi.

va dizayn  
dollar,  
'anaviy  
nasi

Festival davomida yosh hunarmandlar  
uchun an`anaviy kashtachilik, tabiiy  
bo`yash, an`anaviy to`qimachilikdan  
foydalangan holda dizayn, marketing  
kommunikatsiya bo`yicha mahorat  
va treninglar o`tkaziladi.





# TIL BOR – MILLAT BOR

**“O‘zbek tili bayrami”  
munosabati bilan  
Erkin Vohidov  
ijod maktabi  
o‘quvchisi Gulyora  
Hoshimjonova  
taniqli shoir, ustoz  
ijodkor Eshqobil  
SHUKUR bilan suhbat  
uyushtirdi.**

**— Assalomu alaykum, ustoz! Siz o‘z ijodingiz bilan ona tilimiz ravnaqiga katta hissa qo‘shib kelyapsiz. Ayting-chi, aynan shu yo‘lni tanlashingizga nimalar turtki bo‘ldi?**

— Va alaykum assalom! Har qanday ijodkor uchun, avvalo, ijod manbai ham, suyanadigan kuchi ham bu, shubhasiz, uning ona tilidir. Tilni yaxshi bilmasdan, unga muhabbat qo‘ymasdan biron yaxshi narsa yozish mumkin emas. Chunki tilning o‘zi ijodkorga katta quvvat beradi. Til uning ijodiy yo‘nalishlari harakatini, mohiyatini belgilab beradi.

Men bolaligimdan so‘zlar tarixi va o‘zbek xalq iboralariga juda qiziqqanman. Keyingi yillarda, aniqrog‘i 15 yildan buyon tilimizdagi so‘zlarning tarixi, paydo bo‘lishi, kelib chiqishini o‘rganish bilan shug‘ullanyapman.

Bu borada menga marhum ustozimiz Erkin Vohidov juda katta rag‘bat bergan. Erkin aka so‘zlar etimologiyasi haqida matbuotdagi ilk chiqishlarimni ko‘rib, mana shu yo‘nalishda ishimni davom ettirish zarur ekanligini ta’kidlaganlar. U kishining “To‘xtamang!” degan gapi hamon menga da‘vat bo‘lib keladi.

Dunyo olimlarining fikricha, globallashuv, ommaviy madaniyat ta’sirida XXI asrda 600 ta til yo‘q bo‘lib ketish arafasida turibdi. Bu 600 ta millat taqdiri xavf ostida qolyapti deganidir. Qaysi millatning tili yo‘qolsa,

o‘sha millatning o‘zi ham tarix maydonini tark etishga majbur bo‘ladi. Shuning uchun ham har bir millat ijodkorlari o‘z ona tilining taqdiri uchun kurashishi shart va buni Vatan va millat taqdiri deb anglashi kerak.

**— «Bobo so‘z izidan» asaringizni kitobxonlar kerakli qo‘llanma, «Izohli lug‘at» yoki o‘z zaxiralarini boyitish maqsadida ham foydalanishlari mumkin. Uning yozilish tarixi qanday?**

— Bu asar mening keyingi yillarda qilgan eng katta ishlarimning biri desam, mubolag‘a bo‘lmas. Dastlab, 2019-yilda bu kitobning birinchi nashri chiqdi. Va nihoyat, bu yil O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi ko‘magida to‘ldirilgan qayta nashri ikki baravar kengaytirilgan holda kitobxonlarga havola etildi. Kitobning sahifalari 300 betdan 600 betgacha yetdi. Yuqorida aytganimdek, so‘zlarning qanday paydo bo‘lganini anglash men uchun juda maroqli. Juda ko‘p allomalarning tom-tom kitoblarini, til haqidagi eng qadimiy toshbitiklargacha bo‘lgan manbalarni o‘rganaman, o‘qiyman. Umid qilamanki, “Bobo-so‘z izidan” ona tilimiz ixlosmandlarida qiziqish uyg‘ota oladi.

**— Sizning ijodingiz Vatan ruhi, so‘z va ma‘rifat tarannumi asosiga qurilgan. Aynan shu mavzularni ilgari surishingizda nima ilhom**

yechadigan joyga yechib kiring, poyabzalingizni tartibli qilib yeching, o‘z holicha yechib tashlab qo‘ymang, yechib kiyayotganda ham odobga muvofiq: kiyishni o‘ng oyoqdan boshlang, yechishni chap oyoqdan boshlang. Zero, sayyidimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam: «Birortangiz poyabzalini kiya, o‘ng oyoqdan boshlasin, yechsa, chap tomondan boshlasin. O‘ng taraf kiyayotganda birinchi, yechayotganda ikkinchi bo‘lsin», dedilar. Muslim va boshqalar rivoyat qilishgan. O‘z uyingizga yoki bironing uyiga kirayotganingizda poyabzalingizni ko‘zdan kechiring. Agar unda biron nopok narsa bo‘lsa, uni yerga ishqalab tozalang. Chunki dinimiz islom poklik va ozodalik dinidir.

## **9. Mehmonga borgan odamning mezbonning uyida o‘tirish va uning ikromini qabul qilish odobi.**

Mezbon bilan joy masalasida tortishmang, u qayerni ko‘rsatsa, o‘sha yerga o‘tiring. Ehtimol, o‘zingiz istagan joyga o‘tirsangiz uy sohibining biror siz ko‘rishingiz mumkin bo‘lmagan narsasiga ko‘zingiz tushib qolar. Yoki bu o‘tirish bilan uy ahlini noqulay ahvolga solarsiz. Sizga qanday ikrom ko‘rsatsa, ikromini qabul qiling. Buyuk sahoba Adiy ibn Hotam roziyallohu anhunung musulmon bo‘lishlari qissasida shunday deyiladi: «U kishi Nabiy sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga keldilar. Shunda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam u kishini to‘shak ustiga o‘tirg‘izib, ikrom qildilar. O‘zlari esa, yerga o‘tirdilar». Adiy roziyallohu anhunung o‘zlari voqeani shunday bayon qiladilar: «So‘ngra Rasululloh sollallohu alayhi vasallam meni uylariga olib bordilar va ichi hurmo po‘stlog‘i bilan to‘ldirilgan ko‘rpachani yerga to‘shab: «O‘tir bunga» dedilar. Men: «Bunga o‘zingiz o‘tiring» dedim. U zot: «Bunga sen o‘tir» dedilar va o‘zlari yerga o‘tirdilar». Bu hadisni Ismoil ibn Kasir o‘zlarining «Al-bidoya van-nihoya» kitoblarida zikr qildilar. Siz ham mehmonga borganingizda mezbon ko‘rsatgan joygagina o‘tiring. Mezbon buyurmaganicha biron bir so‘ri, divan yoki shu kabi narsalarga o‘tirmang.

## **10. Mehmondorchilikda o‘tirish odoblari.**

Mehmondorchilikda o‘tirganingizda u yoq, bu yoqqa alanglab, ko‘zingizni jovdiratmang. Aksincha, o‘tirganingizda odob bilan o‘tiring. Berk javonlarni, sandiqlarni, sumkalarni va boshqa o‘ralgan narsalarni ochmang. Chunki bu islom odobiga va omonatdorlikka xilof ishdir. Shunda mezbonning sizga bo‘lgan hurmati va muhabbati yanada ortadi.

## **11. Mehmondorchilikka borish vaqtini va muddatini tanlash odobi.**

Mehmonga borishda har ikki taraf uchun ham munosib vaqtni tanlash lozim. Shuningdek, mezbonning uyida ham kerakli miqdorda o‘tirish kerak. Mezbonga malol keladigan, og‘ir keladigan darajada ko‘p o‘tirmaslik lozim. Ziyoratga, mehmondorchilikka noqulay va nomunosib vaqtda bormang. Masalan, taomlanish, uxlash, dam olish va boshqa shu kabi vaqtlarda bormaslik lozim. Imom Navaviy o‘zlarining «Al-azkor» nomli kitoblarida shunday deyilar: «Musulmon kishi solihlarni, aka-ukalarni, qo‘shnilarni, do‘stu birodarlarni va boshqa yaqinlarni ziyorat qilishi hamda ularga ikrom ko‘rsatishi, yaxshilik qilishi, silai rahm qilishi eng zarur mustahab amallardandir. Bu narsalarga esa ziyorat qilinadigan kishining holatidan kelib chiqib amal qilinadi. Ular yoqtirmaydigan, ularni noqulay ahvolga soladigan vaqtlarda ziyorat qilmaslik lozim. Balki, ular rozi bo‘ladigan vaqtda ziyorat amalga oshirilishi zarur. Bu borada vorid bo‘lgan hadislar juda ham ko‘p va mashhurdir».

## **12. Mehmonga borganida u joydagi katta va kichiklar bilan gaplashish odobi.**

Mehmonga borganingizda u yerdagilar bilan vaziyatga mos mavzuda va kerakli miqdorda gaplashish lozim. Agar siz o‘tirganlarning ichida eng kichigi bo‘lsangiz, biror kishi savol berib biror narsa so‘ramagunicha, hech narsa gapirmang. Yoki sizning gapiradigan gapingiz vaziyatga mos bo‘lsa, o‘tirganlarni hursand qilsa gapiring. Gapni cho‘zib yubormang, gapingizning mavzusi, ohangi majlis ahliga hamda o‘zingizning maqomingizga mos bo‘lsin.

## **13. Mehmonga borganida u yerdagilarga salom berish va ulug‘ kishilar bilan ularga mos tarzda muomala qilish odobi.**

Mehmonga borsangiz, u yerdagilarga salom bering. Qo‘l berib ko‘rishishni u yerdagi ulug‘lardan, yoshi kattalardan boshlang. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam: «Kattani hurmat qil» dedilar. Boshqa bir rivoyatda esa: «Yoshi ulug‘ni e‘zozla» dedilar. Buxoriy va Muslim rivoyatlari. Abu Ya‘lo va Tabaroniyning rivoyatida esa: «(Hurmatu e‘zozni) kattalardan boshlanglar» deganlar.



O‘zbekim  
Adabiy, ilmiy-ma‘rifiy  
jurnal

MUASSIS:

Erkin Vohidov  
nomidagi ijod  
maktabi

Bosh muharrir:

Nigora  
MANNOPOVA

TAHRIR HAY‘ATI:

Bahodir ISO  
Gulchehra  
ASRONOVA  
Muhammadamin  
NURMATOV  
Jamoliddin  
BADALOV  
Mahmudxon  
QO‘CHQOROV

TAHRIRIYAT  
KENGASHI:

Nilufar ERGASHEVA –  
11- sinf  
Gulzoda TURDALIYEVA  
– 11 – sinf  
Murodil SOBIROV –  
9 –sinf  
Nigina ERGASHEVA –  
10-sinf

Rasmlar muallifi:  
Abduhayot  
Abduqodirov

Tahririyat manzili:

Marg‘ilon shahar,  
Turkiston ko‘chasi,  
138-uy.

Bizni  
@erkinvohidovmaktabi  
telegram manzili  
orqali kuzatib  
boring.



Abu G'UDDA

# Islomiy ODOB

(Davomi)

## 6. Darvozani chertayotgan odam ichkaridagilarga o'z ismini aytib tanitishi lozim.

Birorta yaqin odamingizning darvozasini taqillatayotganingizda ichkaridan: «Kim u?» deyilsa, ismingizni to'liq aytib, o'zingizni taniting. «Bir kishi», «men», «falonchi» demang. Chunki ichkaridagilarga bu so'zlar eshikni taqillatuvchi kim ekanligini mutlaqo anglatmaydi. Siz: «Ichkaridagilar ovozimdan tanishadi», deb o'ylamang. Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam eshik taqillatuvchining «Men» deyishini yoqtirmas edilar. Jobir ibn Abdulloh roziyallohu anhu dedilar: «Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning uylariga kelib, eshiklarini taqillatdim. U zot ichkaridan: «Kim u?» dedilar. «Men» dedim. Shunda nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Men, men?!» dedilar. Go'yo u zot mening so'zimni yoqtirmadilar». Buxoriy va Muslim rivoyati. Shuning uchun sahobai kiromlar «Kim u» deyilsa, ismlarini aytib tanishtir edilar.

## 7. Mehmonga borgan odam uyga kirayotganda ko'zlarini tiyib kirish odobi.

Mehmonga yoki boshqa biror ish bilan bironing uyiga kirayotganingizda, hovlining ichkarisiga va ichkaridagi nomahramlarga qarashdan ko'zingizni tiying. Chunki bu katta ayb va odobsizlikdir. Imom Buxoriy «Al-adab al-mufrad» kitoblarida Savbon roziyallohu anhudan rivoyat qiladilar: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: «Hech bir kishiga ruxsat so'ramagunicha bironing uyining ichiga qarashi halol emas. Agar qarasa ichkariga kirgan hisoblanadi». Ya'ni ruxsat so'ramay ichkariga kirganning hukmida bo'lib qoladi. Bu ish esa haromdir.

## 8. O'z uyiga yoki boshqa bironing uyiga kirayotganda poyabzalni yechib kirish odobi.

Bironing uyiga yoki o'z uyingizga kirayotganingizda ham, chiqayotganingizda ham ohista kirib-chiqing, ko'zingizni pastga qarating, ovozingiz muloyim bo'lsin, poyabzalingizni

## beradi va ijod olamida kimni ustoz deb bilasiz?

— Savolingizning oxirgi qismiga javob berishdan boshlasam. Men ijod olamida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdiyeva, Omon Matjon, Shavkat Rahmon, Ozod Sharafiddinov kabi ulug'larning tahsilini ko'rdim. Ular bilan ko'p davralarda birga bo'ldim. Ulardan ham hayot, ham adabiyot borasida ko'p narsalarni o'rgandim. Hozir nimagaki erishgan bo'lsam, bariga ular sababchi. Adabiyot bu — ma'rifat. Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Lev Tolstoy, Gyote, Rumi kabi ulug'larning hammasi adabiyotni inson qalbini tarbiya qiluvchi, inson tuyg'ularini parvarishlovchi san'at deb bilganlar.

## — «Urushdan xat keldi», «Eng qadim, eng yangi» she'rlaringizda, asosan, nimalarga e'tibor bergansiz? Bu jarayonda sizdagi adabiy muhit qanday bo'lgan?

— Ushbu she'rlarimda men bir narsa — o'zbek ruhiyatini, o'zbek ayolining qalbini ifodalashga harakat qilganman. Agar e'tibor bergan bo'lsangiz, «Urushdan xat keldi» she'rida ayol asli savodsiz, harf tanimaydi, lekin u urushdagi eridan kelgan xatni harfma-harf, so'zma-so'z o'qib tugatdi, degan ramziy xulosa bor. Bu esa muhabbat mo'jizasidir. Olamni qalb bilan anglash hodisasi. Ikkinchi she'rda ham shunga o'xshash falsafa bor.

Adabiy muhit... Ha, bu, albatta, muhim. Balzakning mashhur gapi bor: «Odamlarning bachkana va mayda-chuyda gaplari har qanday dahoni go'rga tiqadi». Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, har qanday iqtidorli odam mayda-chuydalar, arzimaydigan narsalar atrofida o'zining iqtidoriga putur yetkazadi. Soxta shuhrat ilinjida qolib ketaveradi. Agar, aksincha, bo'lsa, buning yo'rig'i boshqa. Iste'dodli odam o'zidan balandlar davrasiga qo'shilishi kerak. Shunda u o'sadi, ulg'ayadi.

## — «Kibr-u havo» she'ringiz meni juda ta'sirlantirdi. Ayniqsa, «Bir beshikka siqqan dunyoga sig'mas» misrangiz meni ham o'ylantiryapti, ham hayratda qoldiryapti. Undagi reallik badiiy jihatdan she'rni yana ham bezab turibdi. Shogirdlaringiz ham shunday she'rlar yozishi uchun qanday maslahatlar berasiz?

— Avvalo, she'r haqiqiy ma'noda ko'ngilda paydo bo'ladi. She'r ko'ngil mulkidir. Soxtalikdan qochish kerak. Odamzod ko'nglidagini yozadi, she'r orqali hamma ko'ra olmaydigan narsalarni ko'rsatadi. Shuning uchun ba'zida to'rt misra butun bir asarga tenglashtiriladi. She'rni undoq yoz, bundoq yoz deyish qiyin. Haqiqiy ma'nodagi she'r qalbdan chiqadi. Men

Gyotening bir gapini ko'p aytaman: «Ayolni birinchi marta gulga o'xshatgan odam haqiqiy shoir, ayolni ikkinchi marta gulga o'xshatgan odam esa oddiy mahmadonadir». Mana, she'riyatga munosabat.

## — «Tilni boyitib borish, go'zal qilish, xas-xashaklardan tozalash, unutilgan so'zlarni qayta tiklash yolg'iz tilshunoslarning emas, balki millatning ishidir». Ustoz Erkin Vohidovning tilimiz haqidagi ushbu fikriga munosabat bildirib o'tsangiz.

— Men «Boboso'z izidan» asarimni Erkin Vohidovga maktub bilan boshladim. Bu bejizga emas, albatta. Erkin aka bu yo'ldagi fidoyilardan biri edi. Tilni butun millat o'zini himoyalaganday himoyalashi kerak. Agar tilimizni asrasak, biz hamma narsamizni asragan bo'lamiz. Buni barcha birdek his qilmasa, bugungi globallashuv davrida bu masala juda chigallashib ketadi. Erkin Vohidovning «So'z latofati» nomli kitobi bor, bu asar ham aynan tilni himoya qilishga qaratilgan. Zero, tilimizni saqlab qolish bu butun bir millatni saqlab qolish demakdir.

## — Adabiy muhit ijodkor hayotida katta o'rin tutadi. Bu borada fikringiz qanday?

— Yuqorida aytganimdek, iste'dodli inson iste'dodsizlar orasida bo'lmasligi kerak. Adabiy muhit juda zarur. Shuni aytib o'tishim joizki, ijodkor qanday adabiy muhitda o'sib, shakllansa, uning kelajagi, uning natijasi xuddi shunday bo'ladi.

## — Siz asarlaringizda voqelikni ko'pincha o'z hayotingizdan olasizmi yoki o'zgalar hayotidanmi?

— Men she'rda ham, nasrda ham, avvalo, qalbinga juda kuchli ta'sir qilgan narsalar haqida yozaman. O'zganing hayotidan olgan taqdiringizda ham, agar qalbingizdan o'tkazib, dardga o'zingiznikidek qaramasangiz hech vaqo chiqmaydi. Chunki siz bironing dardini o'zingiznikiga aylantirsangizgina uni o'quvchiga yetkazib bera olasiz. Odamlar o'zlarining dardini, iztirobini bilmay turganida siz ularga bularni his qilishga yordam berasiz. Ana shunday holatni topish kerak. Ijoddagi bosh masala ham aynan shu. Men «Nasr millat tafakkurini tarbiyalaydi, nazm esa millat tuyg'usini tarbiyalaydi» degan fikrga mutlaq qo'shilaman. Bu juda muhim gap!

Suhbat so'ngida sizlarga sog'lik-salomatlik, ijodiy barkamollik tilayman.

## — E'tiboringiz, saboqlaringiz uchun tashakkur, ustoz!

Imom Buxoriy nomli  
Toshkent islom institutini  
bitiruvchisi  
Nozimjon IMINJONOV  
tarjimasi asosida  
Abdurahmon LATIPOV  
tayyorladi



# USTOZLARGA EHTIROM

Istiqlol yillarida o'qituvchi kasbini e'zozlash, mehnatini qadrlash va munosib rag'batlantirish ta'lim sohasidagi islohotlarning muhim yo'nalishiga aylandi.

**F**arzandlar ta'lim-tarbiyasi, yosh avlodni barkamol insonlar etib kamolga yetkazishga alohida e'tibor qaratish xalqimizga xos ezgu fazilatlaridan.

Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, dunyoning bor boylik va xazinasi bilan ham sizlarning oliyjanob mehnatingiz haqini ado etib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, har bir murg'ak bolani o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'ri, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar tom ma'noda fidoyi kasb egalari. Biz bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo'yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan ming-minglab farzandlarimiz kamolida o'qituvchi va murabbiylarimizning beqiyos hissasi borligini yaxshi bilamiz va sizlarning bu ulug' xizmatini yuksak qadrlaymiz.

Joriy yilning 29-sentabr kuni Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabida 1-oktabr — "O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan "Mehr-u



muhabbingiz uchun tashakkur!" shiori ostida madaniy tadbir o'tkazildi.

Shu bilan birga faollik ko'rsatgan, tashabbuskorligi bilan ko'pchilikka namuna bo'lgan pedagog ustozlar, tarbiyachi-ustozlar Marg'ilon shahar hokimligi hamda maktab ma'muriyati tomonidan tashakkurnoma va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. Tadbir yakunida maktab direktori Nigoraxon Mannopova tashrif buyurgan mehmonlarga, tadbir tashkilotchilariga o'z minnatdorchiligini bildirib o'tdi.

So'ng o'quvchilar tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar, sahna ko'rinishlari, quvnoq savol-javoblar, musiqiy chiqishlar yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

## "ERKAKCHA" MUSHOIRA

**Ijodkor ustozlar hamda o'quvchi-yigitlar ishtirokida yoshlar man'aviyatini yuksaltirish, ular orasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan yangi "Erkakcha" mushoira loyihasi o'tkazildi.**

Ichki tuyg'ularni nafislik, hayajon, mardonalikka yo'naltirilgan yigitlardan eng sara she'rlar eshitildi. Ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilgan mushoirada ijod maktabining barcha yigitlari ishtirok etdi.

Turli yo'nalishlarda, ayniqsa, muhabbat mavzusidagi she'rlar boshqacha jarang sochdi. She'r o'qigan ijodkor ustozlardan o'quvchilar ijod yo'lida kerakli tavsiyalar va eng asosiysi ruhiy motivatsiya oldilar.

5. Alisher Navoiy o'n besh-o'n olti yoshlarida ham turkiy, ham forsiyda ijod qiladigan "ikki tilli" shoir sifatida tanilgan.

6. Alisher Navoiy o'smirlik yillarida o'zi sevgan shoirlarning 50 ming baytdan ortiq she'rlarini yod bilgan.

7. Alisher Navoiy turkiy tilda yozgan she'rlariga Navoiy, forsiy tildagi she'rlariga Foni deb taxallus qo'yadi. Shoirning forsiy she'rlar to'plami "Devoni Foni" deb nomlangan.

8. Navoiyning sevgilisi sifatida tasvirlanadigan "Guli" ismi faqat xalq og'zaki ijodida, Navoiy haqidagi rivoyat va afsonalarda uchraydi xolos. Guli nomi Navoiyning hayoti haqida ma'lumot beruvchi yozma manbalarning hech birida uchramaydi.

9. Navoiy asarlarida Farhod — komil inson timsolidir. U bolaligidan ilmga chanqoq bo'ladi va bir marta o'qigani sira yodidan chiqmaydi. Farhod o'n yoshga yetganda hamma ilmlarni egallab bo'ladi.

10. Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulug' shoir o'rtasidagi ustoz va shogirdlik munosabatlari yanada mustahkamlanib, ijodiy hamkorlikka aylanadi.

11. Samarqand Navoiyning hayoti va ijodida muhim ahamiyat kasb etadi. Alisher 1464-yilda Samarqandga keladi va bu yerda madrasada tahsil olib, ilm-fan, adabiyot va san'at bilan tanishadi.

12. 1469-yili Navoiy do'sti Husayn Boyqaroning taxtga chiqishi munosabati bilan 90 baytdan iborat "Hiloliya" qasidasini yozadi ("hilol" — yangi chiqqan oy).

13. Navoiy o'z jamg'armasi hisobidan Hirotda va butun Xuroson mamlakatida 300 dan ortiq inshootlar qurdirgan.

14. Alisher Navoiy 16 ta adabiy janrda ijod qilgan. Navoiy turkiy tilidagi ilk "Xamsa" 2 yil davomida yozadi. Dunyoning 64 tiliga tarjima qilingan bu asar 51 ming misradan ortiq. Shoirning lirik merosi umumiy hajmi 50000 misradan ortiq "Xazoyin ul-maoniy" nomli to'rt devon (1491—1498)ga jamlangan.

15. Alisher Navoiy 1501-yil 3-yanvarda vafot etdi. Uni dafn etish chog'ida maydalab yomg'ir yog'ib turgan edi. Buni tarixchi Xondamir "hatto tabiat ham motam tutdi" deya ta'riflagan.

### Alisher Navoiyning 10 hikmati

1. Kishining odobi uning boyligidan yaxshidir.
2. Oxirat savobi dunyo rohatidan yaxshidir.
3. Til zarbasi tish og'rig'idan kuchliroq.
4. Ko'p toatdan oz ma'rifat yaxshi, aqlli dushman axmoq do'stdan yaxshiroqdir.
5. Yomon do'st shaytondir.
6. Til sukuti inson salomatligi.

7. Seni yomonlikka boshlagan kishi dushmaningdir.

8. Kimki ko'ngilni qattiq so'z bilan jarohatlar ekan, unga achchiq til zaharli nayzadek sanchiladi.

9. Muloyim so'z vahshiyatlarni ulfatga aylantiradi; sehrgar ohang bilan afsun o'qib, ilonni inidan chiqaradi.

10. Ko'p, bemaza so'zlaydigan ezma kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o'xshaydi. Tili yomon odam xalq ko'nglini jarohatlaydi, o'z boshiga ham ofat yetkazadi.

### Navoiy haqida bir rivoyat

Alisher Navoiy hazratlari Samarqandda o'qib yurgan kezarlari Buxoroyi sharifni ziyorat qilishni orzu qilbdilar. Samarqandda to'xtab o'tadigan karvonlarga qo'shilib, bir guruh do'stlari bilan Buxoroga yo'l olibdilar.

Karvon yo'l yurib, yo'l yursa ham mo'l yurib, Karmanadan o'tib «Malik rabot» karvonsaroyiga kelib to'xtabdi. Yo'lovchilar dam olib, tuyalar va otlarini sug'oribdilar. Meshlarni to'ldirib suv olibdilar. Karvonda ketayotgan Navoiy hazratlari yon-atrofidagi cho'lu saholarni kuzatib, o'yga tolibdilar. Malik rabot va Sardobani barpo etganlar ruhiga tilovat qilbdilar.

"Qani endi, mening Farhodlarim, Shirinlarim shu bepoyon saholarga kelib, shu joylarni obod qilsalar, suv chiqarib, bog'-rog'lar barpo qilsalar, imoratlar, yo'llar, masjid madrasalar, shifoxonalar barpo etsalar, saholar o'rnida go'zal bir yurt bunyod bo'lsa," deb orzu qilgan ekanlar Alisher Navoiy. Oradan asrlar o'tib, Xudoning marhamati va bobomizning iltijolari, xalqimizning mehnati evaziga tilovat o'qilgan joylar bog'-rog'ga aylanib, shoir nomiga "Navoiy" deb atalibdi.

**Mubina ABDUVALIYEVA,**  
9-A sinf o'quvchisi.







**Nizomiddin Mir Alisher 1441-yilning 9-fevralida Hirotning Bog'i Davlatxona mavzeyida, temuriylar xonadoniga yaqin bo'lgan davlat xizmatchisi G'iyosiddin Bahodir oilasida tavallud topgan. Tarixchi Mirxond "Ravzatus-safo" asarida yozishicha, Amir Alisherning bobosi Amir Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh bo'lgan. Quyida e'tiboringizga Alisher Navoiy hayotiga taalluqli ma'lumotlarni taqdim qilamiz.**

**1.** Navoiyning ilmga bo'lgan ishtiyoqi erta uyg'onib, 4 yoshida maktabda ta'lim ola boshlagan. Navoiy hazratlari 7 yoshida Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr» asarini yoddan bilganlar.

**2.** 7 yoshli Nizomiddin Mir Alisher buyuk muhaddisimiz Buxoriy hazratlarining olti mingdan ziyod hadisi shariflarini yod bilgan. Mir Alisher 7-8 yoshlaridan boshlab g'azallar yoza boshlagan.

**3.** Alisher Navoiy "muqarrabi hazrati sultoni" ("sulton hazratlarining eng yaqin kishisi") degan unvonni olgan. Unvon Navoiyga davlatning barcha ishlariga aralashish huquqini bergan.

**4.** Turkiy tilni qayta tiriltirgani Navoiyning ma'naviyatimiz uchun ulkan jasorati bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur: "Turkiy til bila to she'r aytibdurlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas", - deb yozsa, Husayn Boyqaro: "Mir Alisher turk tilining o'lik jasadig'a Masih nafasi ila jon ato etdi", - deb ta'kidlagan.

# MIR ALISHER NAVOIY HAQIDA 15 MA'LUMOT, 10 HIKMAT VA BIR RIVOYAT

## MAVZU—“MULOQOT ODOBI”

Islom dinining ma'rifiy-ma'naviy mohiyati va mazmunini xalqimizga yetkazish, ularni har xil g'arazli oqimlar hamda manqurt kimsalarga aldanmaslikka chaqirish, yurt tinchligi, xalq farovonligi, dinning sofligini ta'minlash, jaholatga qarshi ma'rifat ila, adashganlarga sof e'tiqod bilan kurashish, bugungi kunlarimizga shukronalik keltirish kabi fazilatlarini jamiyatga yetkazishda imom-xatibning juda katta o'rni bor.

9-, 10-, 11-sinf o'quvchilari ishtirokida "No'mon" masjidi imomi Abdumutalib Sotvoldiyevning "Muloqot odobi" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi.

Yaxshi xulq-atvor - bilimli, madaniyatli insonning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri. Madaniyatli shaxs jamiyatda mustahkamlangan xulq-atvor me'yorlariga doimo amal qilishi kerak.

## BOSH MUHARRIR BILAN UCHRASHUV

**Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabida doimiy ravishda taniqli yozuvchi va shoirlar bilan ijodiy uchrashuvlar o'tkazilmoqda.**

**E**rkin Vohidov nomidagi ijod maktabida 10-,11-sinf o'quvchilari bilan Respublika «Jamiyat» gazetasi bosh muharriri, "Shuhrat" medali sohibi hamda Xalqaro oltin qalam tanlovi g'olibi Maqsudjon Jonixonov ishtirokida ijodiy uchrashuv o'tkazildi.

Suhbat davomida viloyatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan ishlar, loyiha va takliflar tanlovi, yoshlarimizning ijtimoiy faolligini oshirish borasida fikr yuritildi va iste'dodli o'quvchilardan ijodiy namunalar tinglandi.

Uchrashuv so'ngida yozuvchi bugungi o'zbek adabiyotining yangi ufqini shakllantirayotgan yosh shoirlarni e'tirof etdi.

Qizg'in va savol - javoblarga boy tarzda o'tkazilgan mahorat darsida o'quvchilar o'zlariga kerakli saboqlar oldilar.



**БОЛАЛАРГА  
БЕРИНГ,  
ДУНЁНИ!** 3

**ВАТАНГА  
МУХАББА  
ИФОДАСИ** 7

Мени кутиб олишга кучоқ очиб чиққан дугонамни кўриб, қотиб қолдим. Чунки у бундан 15-20 йил илгари урфда бўлган хонатлас, ўзбекча тикилган кўйлак-лозимда, бошида, ялтироқ сим ўтган ёшлигимизда севиб боғлаган рўмол билан эди... Хижолат бўлганимданми, уялганимданми, билмайман бошим айланиб кетди... Ҳурмат кўрсатиб сўз беришганида шу ахволимни изоҳлаб, Ватан, миллат соғинчини ҳис қилган, кадрлаган дугонамга таъзим қиламан, дедиму йиғлаб юбордим... Кимдир кўз ёшимни соғинч ёшлари... деди. Аслида ундай эмас эди...

**МИЛЛАТ  
ҚУДРАТИ**

Тўғри, менинг ўзим ҳам русча ўқиганман. Аммо, бoshqa тилларни билиш ўз тилимизни камситиш ёки унутиш ҳисобига бўлмаслиги керак! Эшитгансиз, машқда қанча қийин бўлса, жангда шунча осон бўлади. Шундай экан, ҳозирдан бошлаб, то телевидениега боргунингизга қадар машқ, машқ ва яна машқ. Бу масалада ҳеч қандай баҳона бўлмаслиги керак. Билиб кўйинг. кимки курсатувда тилимизга русча аралаштириб, бузиб гапирса, қайтиб бу даргоҳга қадам босишни хаёлига ҳам келтирмасин!

**“МЕВ  
ДОВР  
ХИТО  
ёхш  
вен  
машрифт**



# O'ZBEK TILIM

1

– Yuz ochdi!  
Davronlar yuz ochdi,  
Boshlanar men haqda so'ng yig'in.  
Ko'chaga chiqaman yuz ochib,  
Bir qo'rquv, bir hadik, bir yig'i!

Chiqaman, kutadir olomon,  
Ne g'avgo, ne suron, ne ishlar?!  
Yuzimga oyog'in bosganlar  
Uyatmay toshbo'ron qilishar.

Boshimga urganlar salanno,  
Qonatib ketdilar shul dilim!  
Jonimdan o'tadi turkligim,  
Jonimni kesadi turk elim!  
Jonimni kesadi turk elim!



2

Uy buzsang ham jinoyat,  
Yo'l buzgan - qonunbuzar.  
Til buzishlik bobida  
Bir-biridan el o'zar.

Qani qaysi mard borki,  
Himoyaga kirishgan.  
Yuzlarim tirnalgan-u,  
Ko'zlarim shundoq shishgan.

Sayhundami, Jayhunda  
Oqib ketyotir so'zim.



**Nilufar ERGASHEVA,**  
**Erkin Vohidov ijod**  
**maktabi**  
**11-sinf o'quvchisi.**

Yurt tilini buzganning  
Jazosi bormi o'zi?!

Uyg'oq avlod kutarman  
Ko'ksim to'larmikan deb.  
Asriy yaralarimga  
Davo bo'larmikan deb!

Shuncha dardlari bilan  
So'zlamaydigan men kim?  
Eshitmas quloq bilan,  
(Ko'rmaydigan ko'z bilan)  
Qanday yuksalish  
mumkin?!  
Qanday yuksalish mumkin?

Sayhundami, Jayhunda  
Oqib ketyotir so'zim.  
Yurt tilini buzganning  
Jazosi bormi o'zi?  
Jazosi bormi o'zi?

# ANGLASH

Til millat ko'zgusi, bizga qo'shqanot  
Yurtim, farzandlaring olg'a boradi.  
Ertaga boylig-u pul, mansab emas,  
Bizdan avlodlarga Vatan qoladi.

Tarixni o'ylasam, qon bo'lar qalbim,  
Charchadi dunyo ham qora tunlardan.  
Men seni topganman o'shal damlarda  
Ma'rifat chiqargan ezgin unlardan.

Dunyoga tenglashdi o'shandan beri  
So'z zabarjad bo'ldi, so'z gavhar, oltin.  
Onamning allasi — qalbimning kuyi,  
Men seni angladim o'zimdan oldin.



**Isfandiyor MASHRABOV,**  
**Erkin Vohidov ijod maktabi 9-"A"sinf**  
**o'quvchisi.**

Oh my God !  
Why this night is so lengthy!?

# TUSH

Bir oy bo'ldi,  
Takror-takror,  
Men birxil tush ko'raman  
Tushlarimda mudrab yurgan,  
El ichida yuraman.  
Ular bilan men ham mudrab,  
Asta qadam tashlayman.  
«Bu — tush» — deyman,  
«Uyg'on» — deyman,  
Uyg'onolmay mudrayman  
Har tun shu hol.



Falak bergan,  
Bu ne balo, qiynoqdir,  
Ey Xudoyim !  
Ey Xudoyim !  
Kecha buncha uzoqdir.  
**Translated by AHMADJONOVA**  
**Fotimakhon. Pupil of 8-«B»**  
**class**

# TURKESTAN IS A HOMELAND

This soil is an old mother,  
Turkestan is a homeland.  
It is sacred for every heart,  
Turkestan is a homeland.  
There are Yassavi's wail,  
Al- Beruni's memory,  
Koshgari's poetry,  
Turkestan is a homeland.  
Tangritog's semblance,  
The aid of my ancestors—  
Jaykhun, Tapas and Ili —  
Turkestan is a homeland.  
In Pharobi's instrument,  
In Navai's dream,  
In King Babur's gloom,  
Turkestan is a homeland.  
In Timur's flag,  
In Shermukhammad'shaust

In the glory of independence  
Turkestan is a homeland.  
Tajik is my high Pomir,  
Turkman is my abutting vein,  
Kyrgyz, Kazak is my heart,  
Turkestan is a homeland.  
MustafoChokay's heart  
Chulpan'smartyre blood,  
Kodiriy's crushed dream,  
Turkestan is a homeland.

**Translated by AKHMADJONOVA**  
**Fotimakhon. The pupil of 9-«B» class.**

# THE SYMPHONY OF LOVE



I agree, my Darling with your condition  
It was impossible to choose another  
Always be alive my hot attention  
Till the last breathe we are together

My heart was broken by reliable  
your words

It tries to catch up own home castle  
No any protection for magic swords  
They cause to freeze my body muscle

Honestly, we made love become endless  
Far from each other, very long distance  
Missing punishment is terrible weakness  
I was surrounded by circle of illness


How I can suffer from intense memory  
Except them future never be bright  
When I think about our history  
It often goes on with sleepless night

You are my belief, also my power  
Being embarrassed is just your habit  
It makes feel happy, crazy lover  
By dink of symphony let's sing a bit

My Allah created, gifted you for me  
Be ready to save yourself and myself  
Give your hand, My darling only trust me  
True love always keeps us itself...

**Durdona NABIJONOVA,**  
**9-«A» sinf.**





## VERGUL

**Erkin Vohidov she'ri**

Vergul o'zi qaydan kelgan?  
Qing'ir-qiyshiq joydan kelgan.  
Yangi chiqqan oydan kelgan,  
Shovva bo'lgan soydan kelgan.

Mergan tortgan yoyga qarang  
Vergul o'sha yoydan kelgan.  
Yoki bukri toyga qarang  
Ershov yozgan toydan kelgan.

Sizga ayondir, hoynahoy,  
Hov kamalak tug'ilgan joy  
Vergul o'sha joydan kelgan.

Voy oyog'im, belginam voy,  
Deydi hassa tutgan boboy,  
Vergul o'sha boboydan kelgan.

Vergul ayni pilla qurti,  
Aytin qayer pilla yurti?  
Vergul uzoq Xitoydan kelgan

Yo'q, bir zamon afandining  
Bir poy kovushi yo'qolgan,  
Vergul o'sha bir poydan kelgan.

## COMMA

Where did the comma from?  
It's from a curved home.  
It came from a new daydream,  
It came from a little stream.

Look at the pulled bow of sniper,  
The comma came from in order that.  
Or look at the colt has hunchback,  
The comma came from that colt.

Perhaps that's what you know  
The birthplace of rainbow,  
The comma came from there.

Oh my foot, oh my waist,  
The grandfather with cane says,  
The comma came from that old man.

Exactly, the comma is silkworm.  
Say me, where is cocoon home.  
The comma is from long China.

No, upon a time afandi,  
Lost his one footwear,  
The comma is from that footwear.

**Translated to English by  
Zuhrakhon AKHMADJONOVA  
pupil of grade 9-«B»class.**



## DREAM

It's been a month to,  
Over and over again  
I have the same dreams.  
I walk in a drowsy crowd,  
In my all dreams.  
I take a step slowly,  
And I also doze with them.  
"It's a vision" "Wake up"  
I say to my tardyly.  
It's hard to waking up,  
Every dreams same wholly  
What a torture and a trouble,  
Given by the welkin to me.  
Oh my God!

## MENING TILIM

Meni ayting, desalar:  
"Kim dunyoda baxtiyor?"  
Chunki o'z ona tilim,  
O'zimning Vatanim bor.

Kim yo'qotsa dunyoda  
Tilini, Vatanini .  
Axir qanday baxtiyor  
Atamoq mumkin uni?

Tilsiz, vatansiz kishi  
Sho'rlikdir, bechoradir.  
Baxtsizlar ichida ham  
Tamom, baxti qoradir.

O, mening ona tilim,  
Baxtinga bo'lg'in omon.  
Otamday bag'ringga bos,  
Qizingni, O'zbekiston.

**Dilangez BAHROMOVA  
Erkin Vohidov ijod maktabi  
8-"B"sinf o'quvchisi.**



## AYTAR SO'ZIM

Ulkan minbarlarda alqaganim rost,  
Yolg'on maqtovlarga  
chalganman qarsak.  
Yot tilni tushungan, seni tushunmay  
U yon bu yonlarga qarayman sarak.

Tun o'tar bu ro'yo kunning ortidan  
Peshtoqlarda porlar ajnabiy so'zlar.  
Bormikin ularning ichida bir mard  
Faqat o'z tilida o'zligin so'zlar.


Ko'rmadim dunyoning hech bir yerida  
O'zin bilganchalik tilin bilganlar.  
Mana quyosh chiqdi yana qaytadan  
Qayerga qocharkin bag'ring tilganlar.

Hatto so'zin aytar dunyoga qushlar...



**Durdona TURSUNOVA,  
Erkin Vohidov ijod maktabi 10-  
sinf o'quvchisi.**





# ALISHER NAVOIY O'ZBEK ADABIY TILINING ASOSCHISI

O'zbek adabiy tilining rivojida 15-asrning ikkinchi yarmi juda muhim davr hisoblanadi. Bu davrda Alisher Navoiy o'zining muborak ijodi bilan o'zbek adabiyotini yuksak darajaga ko'tarish bilan birga, o'zbek tilining taraqqiyotiga ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Navoiy o'z asarlarida, albatta «grammatika» yoki «fonetika» so'zini qo'llagan emas. Lekin tilning grammatik va fonetik qonuniyatlarini yaxshi bilgan, ularni bir-birlaridan yaxshi farqlagan va o'ziga xos arabcha-forscha va turkcha-o'zbekcha atamalar bilan nomlagan: amr, harf, harakat, hamza, voze (voz-yasovchi yoki so'z yasovchi); tajnis va ilhom – ko'p ma'noli so'z; alam-ism, ot; atmutakallim-so'zlovchi; lafz, kalom, alfoz kabilar haqida o'z davriga nisbatan juda muhim fikr va mulohazalar bayon qilgan. Jumladan, Navoiy turkiy (o'zbek) tilining grammatik xususiyatlari haqida yetarli darajada fikr bildirgan. U, xususan, so'z yasash yo'llari haqida maxsus to'xtaydi. O'zbek tilida fe'llardagi birgalik va ortirma darajalarini yasovchi –sh/-ish, -t, qo'shimchalari orqali chopishmoq, topishmoq, ko'chishmoq, o'pishmoq, yugurt, qildurt, yashurt, chiqart kabi so'zlar yasalganligini, sifatlarda belgining ortiq-kamligini esa p, m, vositasi orqali op+oq qop+qora, qip+qizil, sap+sariq, yum+yumaloq, yap+yassi, op+ochuq, yam+yashil, bo'm+bo'sh tarzida ifodalashini aytadi. [1] Shuningdek, ravishdoshning – g'ach/-gach, -qach/-kach affiksi orqali tergach, borg'ach, yorg'och, topqoch, sotqoch kabi fe'l formalarining yasaliishini; harakatni bajarishga intilish, tayyorlanish kabi ma'nolarni ifodalashda esa – gu/-g'u affiksi bilan yasalgan sifatdosh formasiga – dek ravishdosh yasovchi qo'shimchani qo'shilishi orqali borg'udek, yorg'udek, qayg'udek, urgudek, surgudek fe'llarning hosil qilinishini misollar bilan ko'rsatadi. Navoiy asos solgan adabiy tilni tovush imkoniyatlarining kengligi ham to'la isbot qiladi. Chunki Navoiy asarlarining tili o'z davrida mavjud bo'lgan turkiy sheva, lahja va dialektlarning deyarli hammasining vokalizmini qariyb to'liq ravishda aks ettirgan va 9 tarkibli unli tovushlar sistemasi va singarmonizm qonuniyati eski o'zbek adabiy tilining asosiy bazalari bo'lgan qipchoq lahjalari ham, o'g'uz lahjalari ham, o'rta o'zbek (qarluq chigil uyg'ur) lahjalari ham tovush sistemalarini to'liq aks ettirishga imkon beradi. Navoiy tilidagi qisqa hamda cho'ziq i unli tovushli o'sha davrdagi o'g'uz-turkman lahjalari tovush sistemasi to'liq aks ettirish uchun hamda fors-tojik tilining ta'siriga kuchli ravishda uchragan Hirot, Samarqand, Buxoro shahar shevalari va ular tipidagi shevalarning tovush xususiyatlarini aks ettirish uchun xizmat qilgan. Alisher Navoiy asarlari tilida uchrovchi ochiq o (o) tovushi esa shu keyingi aytilgan til va dialektlarda fonema darajasiga ko'tarilgan lablangan o ni aks ettirish uchun qo'llagan. Alisher Navoiyning turkiy til sistemasidagi tovushlarning qonuniyatlarini yaxshi bilishligi va ularni yaxshi qo'llay olishi turkiy tilning tovush imkoniyatlarini necha yuz yillar davomida an'anaga kirib qolgan arab alifbosi

imkoniyatlari darajasida ham yuzaga chiqarish mumkinligini isbot qiladi[2]. Alisher Navoiy va, umuman, klassik shoirlarimiz juda yaxshi bilgan. Ular o'z asarlarining tilida 9 ta mustaqil fonemani ishlatganlar. Alisher Navoiy o'zbek tiliga, ya'ni o'z ona tilimizga diqqat bilan qaradi. Navoiyning afsus bilan ta'kidlashicha, hatto, ko'pgina o'zbek shoirlari ham, ona tili boyliklari va keng imkoniyatlaridan foydalanishga kam e'tibor berardilar. «Bu til dag'al til, unda yuksak san'at asarlari yaratib bo'lmaydi» degan fikrlarga uzil-kesil zarba berish, o'zbek tilining yashirin qolib kelayotgan xazinalarini ochish va uni ilm ahllariga, she'riyat muxlislariga tushintirish o'zbek xalqining buyuk farzandlari oldida muhim vazifa bo'lib turardi. Ana shu ulkan ishning uddasidan Alisher Navoiy chiqa oldi. Navoiy «Bu alfoz va iboratda bir nav daqoyiq ko'pdurkim, bu kunga deguncha hech kishi haqiqatig'a mulohaza qilmag'on jihatdin bu yashurun qolibdur. Va filhaqiqat agar kishi yaxshi mulohaza va taammul qilsa, chun bu lafza muncha vus'at (kenglik) va maydonida buncha fushat (ochiqlik) topilur...» deb yozdi va o'zbek shoirlarini o'z ona tilini faqatgina xalq ommasini emas, balki shoirlar ham qo'llashi, shu tilda, iloji boricha, o'z iqtidor va mahoratlarini ko'rsatishlari kerak edi. Masalan, Navoiy xuddi shu maqsadda quyidagicha yozadi: «...turk tilining jomliiyati muncha daloil bilan sobit bo'ldi, kerak erdikim, bu xalq orasidin paydo bo'lg'on ta'b ahli salohiyat va ta'blarin o'z tillarin turg'och, o'zga til bilan zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikala til bilan aytur qobiliyatlar bo'lsa, o'z tillari bilan ko'proq aytisalar erdi va yana biri bilan ozroq aytisalar erdi. Va agar mubolag'a qilsalar, ikala til bilan teng aytisalar erdi...»[3]. Bobur tili bilan aytganda, Navoiy o'zbek tilida barchadan «ko'p» va «xo'p» yozib, qalam kuchi bilan qablardan joy oldi. Alisher Navoiy til bilimiga doir «Muhokamat ul-lug'atayn» asari bilan o'zbek adabiy tilining, xususan, o'zbek tilshunosligining ilmiy-nazariy asoslarini yaratib berdi. Alisher Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn»da o'zbek tilini fors tili bilan taqqoslab, ona tilidagi ustunliklarini, uning adabiyot, san'at, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotidagi rolini ashyoviy manballar misolida namoyish etadi. Navoiy ikki tilni – o'zbek va fors (tojik) tillarini qiyoslar ekan, birining ahamiyatini kamaytirib yoki rad etib, ikkinchisining ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatmaydi, bu sohada hech qanday mubolag'aga yo'l qo'ymaydi, aksincha, ularning har birini o'z holicha olib qaraydi. Boy materiallarga asoslangan holda o'zbek tilining fors tili bilan teng huquqligi va go'zalligini, ayrim hollarda esa bu tomonlarning ustunligini isbotlab ko'rsatadi. Ayniqsa, bunday xarakterli tomonlarning fonetika tarkibida, so'z yasashda, uslubshunoslikda, leksikada aniq ko'zga tashlanib turishini alohida ta'kidlab o'tadi. Navoiy o'zbek tilini yoqtirganligi va ta'biga mos kelganligi, fors tilini esa sevmaganligi uchun bunday xulosaga keldi, deb o'ylash noto'g'ri bo'lar edi. Demak, Navoiy fors tilining qimmatini va ahamiyatini kamsitmaydi. Ulug' adib fors tilidan foydalanishda yuqori pog'onaga ko'tarilgan bo'lib, ushbu xususda Navoiy bilan bellasha oladigan kishi kam topilar edi.



## MUSHTUM

# OTASINING BOLASI



Maktab binosi. Birinchi qavat.  
-Assalomu alaykum. Men ish so'rab kelgandim.  
-Ha, bizda bo'sh ish o'rni...  
Kotiba hujjatlarga bir qarab olgach:  
-Diplomingiz bormi? — deb so'radi.  
-Ha, bor.  
-Unda direktorning suhbatidan o'tasiz. Keyin ishga qabul qilinasiz.  
-Xo'p.  
Salim shoshilibgina direktorning xonasi tomon yurdi.  
-Assalomu alaykum. Ish masalasida kelgandim.  
-Yaxshi, uka. Keling, o'tiring. Xo'sh, mutaxassisligingiz qanaqa? Qaysi universitetni bitirgansiz?  
-Men Rahimovning o'g'liman.  
Direktor o'ylanib qoldi.  
-Ee, Shavkat akamningmi?  
-Ha, albatta.  
-Unda ertadan ishingizni boshlayverasiz. Xo'-o'sh, qaysi fandan dars o'tardingiz?  
-Qaysi fandan bo'lsa ham o'taveramiz.  
-Ingliz tilidan o'qituvchi yetishmayapti. Shu fandan o'ta qoling unda?  
-Mayli.

Ertasi kuni dars boshlandi. Salim sinfxonaga kirib:  
-Zdrastvuyte dear... o'quvchilar nima deyilar edi? - dedi.  
Shunda bir bola o'rnidan irg'ib turib dedi:  
-Pupils deyiladi, ustoz.  
-Ha, pupils.  
U o'quvchilar bilan birma-bir tanishib chiqdi. Shu zayl kunlar o'tar, har darsda Salim ularning nasl-nasabini surishtirar, mavzu tushuntirish kerak bo'lsa, unisini bunisiga, bunisini unisiga chalkashtirib tushuntirar, oqibatda bolalar hech narsani o'rganmas edilar. Chorak chiqarish paytida otalarining lavozimiga qarab, kimniki zo'r bo'lsa, o'shanga a'lo baho qo'yilardi.  
Hullas, aslida Salim ham, Rahimov ham, direktor ham bir go'r! Kelajakda u o'qitgan bolalar ham shu ta'rifga sherik bo'lsalar, ajablanishga hojat yo'q.  
Bolalarning taqdiri nima bo'larkin, deb o'ylab qoldim. Shunda ko'z oldimga mahallamizdagi o'qishga kira olmay sarson bo'lib yurgan bir to'da abituriyentlar keldi...



**Ibodatxon NOSIRJONOVA,**  
8-«A» sinf o'quvchisi.



# OLMAXONNING sabog'i



Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Qadim zamonlarda bir o'rmonchada turli hayvonchalar: osmonda qarg'a, o'tlar ichida quyon, daraxtlar kavagida esa tipratikan yashar ekan.

Bir kuni tipratikan olmalar olib kelayotsa, oldidan quyon chiqib qolibdi.

—Hoy tipratikan, qornim och, iltimos, menga olmandan ber? — debdi.

Tipratikan o'ylanib turib:

—Hm-m-m... evaziga nima berasan? — debdi.

Quyon esa:

—Agar menda evaziga beradigan biror narsa bo'lganida, sendan oldin qarg'aning pishlog'iga almashgan bo'lar edim, — debdi.

Tipratikan o'ylab ko'rsa, olmandan ko'ra pishlog' qornini yaxshi to'ydirarkan. Shunda u «men pishlog' yeyman», debdi. Keyin quyonga:

—Quyjon, iltimos, menga Qarg'avovni chaqirib ber? —debdi. Quyon Qarg'avovni chaqirgan ekan, u tumshug'ida pishlog'i bilan uchib kelibdi.

Tipratikan undan pishloqni so'rabdi:

—Qarg'avov, iltimos, menga pishlog'ingni ber?

Qarg'a tipratikanga qarab:

—Evaziga nima berasan? — debdi.

Tipratikan:

—Agar sening pishlog'ingga almashish uchun biror bir yegulik bo'lganida, sendan oldin Olmaxonning qo'ziqoriniga almashar edim, — debdi.

Qarashsaki, Olmaxon qo'lida qo'ziqorinlari bilan kelayotgan ekan. U kelib qo'lidagilarni hammaga ulashibdi. Qarg'a, Quyon va Tipratikan hayron bo'libdilar. Chunki Olmaxon qo'ziqorin evaziga hech narsa so'ramabdi. Bundan ular xulosa qilishibdi va hech qachon o'zlarida bor yegulik evaziga boshqalardan biror narsa so'ramaydigan bo'libdilar.

**Mohirabegim SULTONBEKOVA,**  
7-sinf o'quvchisi.



## Ona tili — millat ruhi!!!

O'g'iloy TOSHPOLATOVA  
sahifaladi.

**Til – qalb tarjimoni. Chunki har bir so'z, eng avvalo, qalb torlarida chertiladi. So'ngra so'zlarda jilolanib tinglovchiga etkaziladi.**

Til — inson qalbining ko'zgusidir. Unda nafaqat inson qalbi, balki o'sha xalqning o'tmishi, buguni, kelajagi, madaniyati va boshqa bir qancha jihatlar ham aks etib turadi. Bejizga biz til so'ziga ona so'zini egizak qilib aytmaymiz. Shuning uchun ham biz uni onamizdek qadrlashimiz, e'zozlashimiz, saqlashimiz va kelajak avlodga sof holda yetkazishimiz lozim. Til insonning libosidir. Bu libosni qanday kiyish har bir insonning o'ziga bog'liq. Ba'zi insonlar oddiy libosni ham go'zal qilib, yarashtirib kiyadi. Ba'zi insonlarda esa har qanday go'zal libos o'z ko'rkini yo'qotadi. Til – qalb tarjimoni. Chunki har bir so'z, eng avvalo, qalb torlarida chertiladi. So'ngra so'zlarda jilolanib tinglovchiga yetkaziladi.

Mana o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga o'ttiz uch yil to'ldi. Bu qisqa vaqt ichida tilimizda juda katta o'zgarishlar, yuksalishlar ro'y berdi. O'zbek tilining ikki tomli izohli lug'atidan siqib chiqarib tashlangan ma'naviyat, ma'rifat, qadriyat, ibo, hayo va boshqa bir qancha o'zligimizni anglatib turadigan so'zlarimiz, istiqbolimiz sharofati ila nashr etilgan besh tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga kiritilgan. Bu barchamiz uchun quvonchli holat. Tilimizning boshqa tillarga qaraganda qanchalik boy til ekanligini XV asrdayoq Hazrat Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asari orqali isbotlab ketgan. U kishining "Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz" degan fikrlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, balki

biz uchun dasturilamal vazifasini o'tab kelmoqda. Ammo bu fikrga barchaning birdek amal qilmasligi tanamizdagi og'ir va yuqumli kasallikka o'xshab bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "O'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyat" ekanligini har bir inson qalbdan his qilmog'i darkor.

Hammamizga ma'lumki, dunyoda yetti mingga yaqin til bor, ammo shularning ikki yuztasigina davlat tili maqomiga ega. Ularning orasida o'zbek tilining borligi esa tilimizning naqadar buyukligi, jozibadorligi, jahon hamjamiyatida ham o'zining munosib o'rniga ega ekanligini anglatadi. Ammo ana shu buyuklikning qadriga hamma birdek yetyaptimi?

Nima uchun ko'cha harakatini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi? Adibimiz Abdulla Qahhorning bergan bu savoli qachon o'z javobini topadi?

Rossiyalik tilshunos olim A. M. Kozlyanina: "O'zbek tili nafis va musiqa ohangidek jozibador" ekanligini tan olib turgan bir paytda "o'zbekman", deb yurganlar nima qilishyapti? Bu kabi og'riqli nuqtalarni sanasak, tilimizning ertasi hammamizni chuqur o'yg'a toldiradi.

"Tilimiz qayerda buzilyapti?" deya o'zingizga savol berib ko'ring va ko'chaga chiqing. Ishga yoki o'qishga borar ekansiz, yo'l-yo'lakay atrofda qurilgan bir-biridan go'zal binolar, ko'p qavatli uylarni ko'rib, ko'zingiz quvnasa, ularga qo'yilgan tilimiz uchun yot bo'lgan nomlarni ko'rib, ta'bingiz xira tortadi. Bozorga borsangiz, yurtimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga qo'yilgan nomlarda ham o'zbekcha so'zlarni deyarli uchratmaymiz.

Bunday nomlar orqali tadbirkorlar xaridorlarning diqqatini tortishmoqchimi yoki tilimiz shunchalik qashshoqmi?

Bugungi kunda nega ko'pchilik, ayniqsa, yoshlarimiz o'z nutqiga chet tillardagi turli so'zlarni qo'shib gapirishadi yoki o'sha tilni ham yaxshi bilishadimi? Yaxshi bilishsa-ku mayli, ammo... Tilimiz shunchalik qashshoqmi yoki bu ham madaniyatning bir belgisimi? Afsuski, mana shunday savollar bizni chuqur o'yg'a toldiradi. O'z ona tilini hurmat qilgan inson hech qachon tilni buzib gapirmaydi. Bugungi qo'shtirnoq ichidagi madaniyatli va zamonaviy yoshlar tilimizni qay darajada bilishar ekan? Ko'pgina chet ellarda o'zbek tilini o'rganishayotgan bir paytda tilning haqiqiy egalari uni buzib gapirishsa, qanchalik to'g'ri?

Ona tilini sevmagan, uning qadriini anglamagan inson yuragida el-u yurtga, Vataniga muhabbat ham bo'lmaydi. Biz tilimizni qanchalik asrasak, yuksaltirsak, rivojlanishiga hissa qo'shsak, o'zga millatlar ham bizning tilimizni hurmat qilishadi hamda uning dunyo hamjamiyati maydonidagi o'rnini va poydevorini shunchalik mustahkam qo'ygan bo'lamiz. Zero, "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadigan oyinai hayoti til va adabiyotdir", "Milliy tilni yo'qotmak, millatning ruhini yo'qotmakdur".





Doskaga mavzuni yozib tushuntirayotgan Shohista opaning xayoli ariq oldida o'ynayotgan sinfidagi o'quvchilari bilan band edi.

Ora-orada derazaga qarab qo'yar, "Buncha vaqtli kelishmasa bular, ishqilib, biror g'alvani boshlashmasinda", deb o'ylardi.

Ko'ngli sezgan ekanmi, o'quvchisi Dilshoda beton ariq yonida o'ynab yurib yiqilib tushdi-da, qattiq chinqirdi. Muallimning boshiga gurzi tushgandek bo'lib, qanday qilib ariq bo'yiga yetib borganini bilmay qoldi. O'quvchisining qo'li singan ekan... Ichi achigancha birinchi yordam ko'rsatib, shifokorga jo'natib yubordi.



Ertasi kuni esa ona tili darsida suv quygandek jim-jit sinfni eshikning vajohat bilan taqillagan ovozi buzib yubordi. Ichkariga kirgan Muqaddas opa - Dilshodaning onasi yuzi g'azabdan qizarib kirib keldi.

Muallimga qarab:

-Nega o'quvchilaringizga qaramaysiz?! - deya baqira ketdi. Dili vayron bo'lgan o'qituvchi arang:

-Uzr, o'zingiz ham erta jo'natmang-da, hali yosh bo'lsa...-deya oldi.

-Xohlagan vaqtimda jo'nataman, sizning bu bilan ishingiz bo'lmasin. Sal mas'uliyatli bo'lsangiz, zarar qilmaydi! - deya jahllilik qilishda davom etardi ayol.

Shohista opa boshini egib turar, qalbida allaqanday hislar tug'yon urardi.

So'ng boshini ko'tarib, Muqaddas opadan:  
-Dilshoda yaxshimi?, deb so'radi...



**Dilfuza BAXTIYOROVA,**  
7-«A» sinf o'quvchisi.



Yuziga tomgan shudring tomchisi Tikanvoyning shirin uyqusini buzdi.

- Kim yuzimga suv quydi?-jahli chiqdi uning. Aatrofiga qarasa gulzorda yotibdi. Oyisi nega shu vaqtgacha uyg'otmadi ekan? Kun yoyilib qolgan edi. Birdan esiga maktabga borishi kerakligi tushib qoldi va shoshib uy ichiga yugurdi. Soatga qaradi, dars boshlanishiga yarim soat vaqt qolibdi. Tez yuvinish xonasiga kirib, jo'mrakni buradi. Qarasaki, suv yo'q. «Sho'rimga sho'rva to'kildi»-o'yladi u g'ijinib. Xayoliga birdan boyagi yuziga tomgan shudring tushdi-yu, yugurib gulzorga bordi va gul barglaridagi shudring tomchilari bilan yuzini

yuvdi. So'ng kiyinib, maktabga shoshildi. Yo'lda yaqin do'sti Quyjonni uchratib qoldi. Unga oyisi xolasinikiga ketayotganini aytib xat qoldirganini aytdi:

- Kecha kitob o'qib gulzorda uxlab qolibman, ko'zimni ochsam quyosh charaqlab yotibdi. Oyim bir parcha qog'ozga «Yumshog'im, men xolangnikiga ketyapman, tushligingni olish esingdan chiqmasin»,- deb yozib ketibdi.

Keyin asosiy gapga o'tdi:

- Quyjon, men-chi, yuzimni shudring tomchilarida yuvdim. Zo'r o'ylabmanmi? Aqlimga balli!- o'zini o'zi maqtab qo'ydi Tikanvoy.

Shunday qilib u kun bo'yi kimni ko'rsa bugungi voqelalar va shudring tomchilari haqida ko'p gapirdi. Darsdan so'ng oyisiga ham shuni aytib berdi.

- Voy, o'g'lim, o'zing kechagina «shudring tomchilari poyabzalimni ho'l qildi», deb nolib turganding-ku? - hayron bo'ldi onasi.

- Ha, oyi, unda foydasini bilmagan edim-da. Axir shudring gullar va o'simliklarning ham ozuqasi-ku! Ularning hayotimizdagi o'ni...

Mavzu topilganiga xursand bo'lib, jo'shib gapira ketdi Tikanvoy.

Ona-bola kulisha-kulisha kunni kech qildilar...

# Tong tabiati

Erta bahor. Tongda uyg'onib derazaga qarasam, xira yorug'lik tushyapti. Maktabga harakatni boshladim. Oyim dasturxonni tuzab qo'yibdi. Nonushta qilib, kiyinib, oyim bilan birga yo'lga tushdik. Ko'chaning boshiga bordik va o'ngga burildik. Chap tomonimiz keng dala. Yerlar yumshatilgan, biroz hovur chiqayotgani ko'rinib turibdi. Dala chetlaridagi o'tlarga qirov tushgan, nam. Menimcha, shudring deganlari shu bo'lsa kerak.

Shudring, rostdan ham ajabtovur. Yomg'ir desang, quruq joylar ham yo'q emas, ko'z yoshi desang, kim ham har kuni shu o'tlar ustida yig'lab o'tiradi... Balki, o't-o'lanning ko'z yoshlari desak, to'g'ri bo'lar? Yo'q, bu ilmiy jihatdan noto'g'ri. Shuning uchun ham asarlarda shudring ajoyib tasvirlansa kerak. Axir bu tabiatning ajabtovur bo'lagi-da.

Yo'lda ketayotib, qirov kipriklarimga yopishib

qolganga o'xshadi. Men ham qoyil qoldim, ham hayratlandim. Oyimdan so'rasam, «Bularning bari sovuqdan» degan javob oldim. Hayratim yanada oshdi.

Bekatga yetib keldik. Men chala qolgan darsimni tayyorlab, biologiya fanidan biroz o'qib olmoqchi bo'ldim. Daftarni qo'limga olib, ko'zim muqovadagi rasmga tushdi. Unda chiroyli sariq kapalak va u qo'nib turgan sariq gul bor edi. O'yladim: «Kapalak gulga oziqlanish uchun qo'nadi. Axir u bir kungina yashaydi. Shunda ham u ovqat qidirib, och-nahor yursa-ya! Biz-chi? Bizning qornimiz to'q, lekin, biz shu kapalakchalik kuyinib ilm ololaypmizmi?»

Bugun bo'lgan voqealar, hislarimni daftarga yozdim. Bu mening nasr yo'nalishidagi birinchi asarim edi! Unga «Tong tabiati» deb nom berdim. Chunki tongda tabiat juda boshqacha bo'ladi!

**Davronbek MIRZAHAMDAMOV,**  
7-«A» sinf o'quvchisi.

## Bir kuni o'rmonda

Har xil daraxtlar bilan qoplangan changalzor. Uzoq yillar davomida quyosh bobo nur sochib kelgan, mayin shabadaning esishi, qushlarning erta tongdan sayrashi kabi hodisalar ro'y beradigan bir o'rmonda qushlar va hayvonlar quvnoq, ahil-inoq bo'lib hayot kechirishardi.

Shunday quvnoq, baxtiyor kunlarning birida hayvonlar va qushlar o'rmonda yig'ilib, majlis o'tkazib, o'zlariga qirov, ya'ni boshqaruvchi tanlashga qaror qilishibdi. Bu majlisda shu o'rmonda yashovchi barcha hayvonlar ishtirok etibdi va to'tiqush, zag'izg'on, qarg'a va oqqush o'zlarini qirov bo'lishga va hayvonlarni boshqarishga munosib deb topibdilar.

To'tiqush:

- Men qirov bo'lsam o'rmonimizni tepadan kuzatib, har bir hayvonni nazorat qilaman, - debdi.

Zag'izg'on:

- Agar men qirov bo'lsam, o'rmonimizni ozoda, pokiza va chiroyli qilaman, - debdi.

Qarg'a: - Men qirov bo'lsam, bu o'rmonda qoidalar tuzib chiqaman va barcha hayvonlar ularga bo'ysunib hayot kechirishadi, - debdi.

Oqqush esa:

- Men qirov bo'lsam, yovvoyi hayvonlar va qushlar alohida-alohida yashashardi, - debdi.

Hayvonlar bularning gaplarini eshitib, hech qaysi qushni qirovlikka munosib ko'rishmabdi. Ular rosa tortishibdilar, har bir qush o'zining gapini to'g'ri hisoblab, bahslashibdi. Oxir-oqibat hayvonlar bunday tortishishdan foyda yo'qligini tushunib yetib, bas qilishibdi. So'ng bir-birlaridan kechirim so'rashibdi.

Shunday qilib, hech kim qirov bo'lmabdi. Chunki shundagina har bir hayvon teng huquqqa ega bo'larkan.

Hozirda o'rmon ahli oldingiday ahil-inoq bo'lib hayot kechirmoqda.

**Achasharifa HUSANBOYEVA,**  
7-«B» sinf o'quvchisi.